



# O'zMU XABARLARI

## ВЕСТНИК НУУЗ

### ACTA NUUZ

#### MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI ILMIY JURNALI

JURNAL  
1997 YILDAN  
CHIQA  
BOSHLAGAN

2023  
1/12/1

Ijtimoiy-  
gumanitar  
fanlar turkumi

Bosh muharrir:

**I.U.MADJIDOV** – t.f.d., professor.

Bosh muharrir o'rinnbosari:

**Y.S.ERGASHOV** – f-m.f.d., professor.

**R.X. SHIRINOVA** – fil.f.d., professor

Tahrir hay'ati:

**Sagdullayev A.S.** – t.f.d., akademik.

**Ashirov A.A.** – t.f.d., prof.

**Balliyeva R.** – t.f.d., prof.

**Malikov A.M.** – t.f.d., prof.

**Yusupova D.Y.** – t.f.d., prof.

**Murtazayeva R.H.** – t.f.d., prof.

**Mo'minov A.G.** – s.f.d., prof.

**Nishonova O.J.** – f.f.d., prof.

**Abdullahayeva N.B.** – f.f.d., prof.

**Madayeva Sh.O.** – f.f.d., prof.

**Tuychiyev B.T.** – f.f.d., prof.

**Utamuradov A.** – f.f.n., prof.

**Muxammedova D.G.** – psix.f.d., prof.

**Siddiqova I.A.** – fil.f.d., prof.

**Mengliyev B.R.** – fil.f.d., prof.

**Sa'dullayeva N.A.** – fil.f.d., dots.

**Arustamyan Y.Y.** – fil.f.d., dots.

**Pardayev Z.A.** – fil.f.f.d., PhD.

Mas'ul kotib: **Z.A.PARDAYEV**

**TOSHKENT – 2023**

<b>Rajabova N.</b> Xorazmlik valiyalar ijodi Alisher Navoiy nigohida.....	191
<b>Saliev U.</b> Voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilik va huquqbazarlikning kelib chiqish sabablari va ularni oldini olishning ijtimoiy omillari .....	194
<b>Tangirov N.</b> Noosfera konsepsiyasining mazmuni va mohiyati.....	197
<b>Temirov M.</b> Bo'lajak o'qituvchilarda o'z-o'zini rivojlanirish ko'nikmasini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari ....	201
<b>Togaymurodova S.</b> The use of electronic educational resources on professional and pedagogical development of students .....	204
<b>Turaev J.</b> The distinctive characteristics of individualized support within the context of adaptive learning in pre-school education....	207
<b>Turayeva L.</b> Akademik litseylarda fizika fanini o'qitishda "Phet interactive simulations" ilovasi imkoniyatlardan foydalaniш.....	211
<b>To'raxonova M.</b> Bo'lajak pedagoglarda kasbiy o'z-o'zini anglash komponentini shakllantirishning ijtimoiy psixologik xususiyatlari .....	216
<b>Turdikulov Sh.</b> Korruпsiyani sotsial hodisa sifatidagi tahliliga doir ilmiy yondashuvlar .....	219
<b>Ubaydullaeva V.</b> Fizikaning texnik qo'llanilishi ustuvorligida tibbiyot yo'nalishlari talabalarning amaliy-jarayonli kompetentligini rivojlanirish modeli .....	222
<b>Умарова Г.</b> Разработка педагогической стратегии повышения профессиональных компетенций будущих инженеров.....	225
<b>Umarova S.</b> Tolerantlik tushunchasi va uning nazariy-metodologik asoslari.....	228
<b>Usmonova Z.</b> Innovatsion ta'limga muhitida talabalar mustaqil ta'liming tashkiliy masalalari.....	231
<b>Usmonxodjayeva M.</b> Boshlang'ich sinf o'quvchilariga nemis tilini o'qitishda loyihalash metodi .....	235
<b>Faxriddinov Y.</b> Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorgarligini diagnostika qilishni takomillashtirish – pedagogik muammo sifatida.....	238
<b>Kalikova L.</b> Ta'limga tizimida yoshlearning kreativlik qobiliyatlarni rivojlanirishda innovatsioninterfaol o'qitish texnologiyalaridan foydalaniш .....	241
<b>Xamidova F.</b> Oilaviy tarbiyaning bola shakllanishidagi o'ziga xos ahamiyati masalasi xorijiy olimlarning nazariy qarashlarida .....	244
<b>Xoliquulov B.</b> Matematik modellashtirish asosida dasturiy metodik majmualarni takomillashtirishning didaktik tahlili .....	247
<b>Хужомов Б.</b> Курash оди из важных факторов физического развития школьников.....	250
<b>Haydaraliyev Sh.</b> Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikni rivojlanirishning ijtimoiy zarurat ekanligi.....	253
<b>Naqberdiyev B., Mirzayev S.</b> Muhandislik grafikasi va dizayn fanlariuni integratsiyalashda pedagogik dizaynni ishtiroti .....	257
<b>Чергинская И.</b> Методы обучения иностранному языку в средствами выражения условных отношений (русский язык) .....	260
<b>Shodmonqulova M.</b> O'zbekistonda o'rta sinfni shakllantirish liberalizm g'oyalarining o'rni .....	263
<b>Shukurov A., Egamberdiyev X., Jo'rayev I.</b> Django freymvorki va react kutubxonasi orqali avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini ishlab chiqish .....	267
<b>Eshquvvatov T.</b> Olyi ta'limga muassasalarini innovatsion rivojlanirishda nizolar profilaktikasiga asoslangan tashkiliy modeli .....	270
<b>Eshpulatov J.</b> Yengil atletika turlariga o'quvchi yoshlarni saralashning pedagogik texnologiyasi .....	274
<b>Yuldasheva G.</b> Maktabgacha yoshdag'i bolalarda "men" konsepsiyasini shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslari .....	276
<b>Yunusov X.</b> Yoshlarning ijtimoiy-demografik, sotsiologik hamda antropologik jihatlari .....	280
<b>Yusupov Z.</b> Yuqori malakali gandbolchilarни texnik-taktik harakatlарини nazorat qilish uslubiyoti .....	283
<b>Yakubova G.</b> Tayyorlov guruh tarbiyachisining savodga o'rgatish jarayoniga innovatsion yondashuvি .....	286
<b>Filologiya</b>	
<b>Allanazarova S., Elova D.</b> NLPda sentiment tahlili tajribasi.....	306
<b>Berdikulova N.</b> Challenges and solutions in learning Kanji alphabet: a scientific analysis .....	310
<b>Boltayeva N., Xolmuradova L.</b> Political discourse as a special form of journalistic style .....	313
<b>Ganiyeva O.</b> XX asr AQSh realistik adabiyotida kichik nasriy janrlar taraqqiyoti .....	316
<b>Djafarova D.</b> Fransuz va o'zbek frazeologiyasida "Tariixiy xotirani" ifodalashda arxaik so'zlarning o'rni va ahamiyati .....	319
<b>Ismailova G.</b> Some insights into religious translation and problems occurring in translating religious words (in the example of Kutadgu Bilib by Yusuf Has Hajjib).....	322
<b>Kambarova S.</b> Adabiyotni fan va san'at turi sifatida o'qitishga doir yondashuvlar tahlili .....	325
<b>Malikova Sh.</b> O'zbek tilshunosligida intertekstuallik hodisasi tadqiqi.....	328
<b>Musulmonova G.</b> Sirojiddin Sidiqiy adabiy merosining o'rganilishi .....	331
<b>Normuminov U.</b> Characteristics and differences of cognitive linguistic and linguistic culture in personal culture .....	335
<b>Nurmatov Y.</b> Historical origin forming of acupuncture and its terminology .....	338
<b>Nusratov J.</b> Types and methods of translation .....	341
<b>Ortiqova N.</b> Ta'limga tashqarisining pedagogik mohiyati va xarakteristikasi .....	344
<b>Radjabova H.</b> Xavfsiz turizmni ta'minlash sohasi terminologiyasida abbreviaturalar tadqiqi .....	347
<b>Рахимова Г.</b> Эмотивные аспекты колористической лексики (сравнительный анализ французского, русского и узбекского языков) .....	350
<b>Raxmatova Y.</b> XX asr badiiy adabiyotida axloqiy ideal muammosi .....	353
<b>Ro'ziyeva N.</b> O'g'uz dialektida sportga oid realiyalar .....	356
<b>Sattarov A.</b> Semantic derivation of verbs of physical influence on objects in english and russian languages .....	359
<b>Sidiqova Sh.</b> Abduqayum Yo'Idosh hikoyalarning syujet xususiyatlari .....	362
<b>Suyunov B.</b> Tezaurus – lingvistik taraqqiyot omili .....	366
<b>Turayeva D.</b> Muallif punktuatsiyasining yuzaga kelishi va punktuatsion tizimdagi yangi an'analar .....	369
<b>To'rayeva M.</b> Sharif Yusupovning Furqat biografiyasiga oid tadqiqotlari .....	373
<b>Turdibekov M.</b> Oponimlarining yasalish xususiyatlari (Shimoliy Tojikiston toponomimlari misolida) .....	377
<b>Турсинмуратов ШШ.</b> Проблемы поэтического перевода произведений А.С.Пушкина на каракалпакский язык (на примере стихотворения «Чёрная шаль») .....	381
<b>Tursunov J.</b> Ajratilgan gap bo'laklarini yuzaga keltiruvchi asosiy omillar .....	384
<b>Usmonov Sh.</b> Lirik psixologizm va uning o'ziga xosligi .....	387
<b>Xolboyeva D.</b> Ingliz va o'zbek tillarida turizm terminlarini tarjima qilish metodlari va qiyinchiliklari .....	390
<b>Colomatova V.</b> Nutqiy tuzilmalar semantikasining konnotativ bo'limalari .....	393
<b>Hojeva Sh., Abdilakimov D.</b> Cho'lpon ijodini o'rganilishiga doir ayrim mulohazalar .....	396
<b>Shukurova S.</b> Jon Steynbekning "G'am-tashvishlarimiz" romanida inson ma'naviyati va erki, shaxs psixologiyasi va xarakteri hamda uning o'zbek nasri namunalari bilan mushtaraklik jihatlari .....	400
<b>Yakubova N.</b> Lexical and semantic characteristics of terms related to tourism .....	404



Baxodir SUYUNOV,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori (DSc)

E-mail: Bahodirsuyunov66@gmail.com

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti professori, f.f.d. S.Muhamedova taqrizi asosida

## THESAURUS IS A FACTOR OF LINGUISTIC DEVELOPMENT

### Annotation

This article discusses the thesaurus and its types, as well as the application of computer technologies to the dictionary. The author purposefully used scientific sources in Uzbek and Russian languages, as well as various dictionaries and scientific research works to cover the topic. Instead, referring to examples and proofs that confirm certain concepts and events, he drew relevant scientific conclusions and gave practical recommendations.

**Key words:** thesaurus, homonym, synonym, antonym, paronym, lexicon, semantics, hyponym, hyperonym, adequate, system, computer, linguistics, corpus, engineering.

## ТЕЗАУРУС – ФАКТОР ЛИНГВИСТИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ

### Аннотация

В данной статье ведется рассуждение о тезаурусе и его видах, а также о внедрении в словароведение компьютерных технологий. При освещении темы автор целенаправленно использует научные источники в узбекском и русском языках, а также различные словари и научно-исследовательские работы. Уместно обращаясь к примерам и фактам, подтверждающим определенные понятия и явления, сделал соответствующие научные выводы по теме и дал практические рекомендации.

**Ключевые слова:** тезаурус, омоним, синоним, антоним, пароним, лексика, семантика, гипоним, гипероним, адекват, систем, компьютер, лингвистика, корпус, инженеринг.

## TEZAURUS – LINGVISTIK TARAQQIYOT OMILI

### Annotatsiya

Mazkur maqolada, tezaurus va uning turlari, shuningdek lug'atichilka kompyuter texnologiyalarini tatbiq etish xususida fikr-mulohaza yuritilgan. Muallif mavzuni yoritishda o'zbek va rus tilidagi ilmiy manbalar hamda turli xildagi lug'atlar va ilmiy tadqiqot ishlaridan maqsadli foydalangan. O'rni bilan ma'lum tushuncha va hodisalarini tadiqlovchi misollar va dalillarga murojaat qilib, mavzu yuzasidan tegishli ilmiy xulosalar chiqargan hamda amaliy tavsiyalar bergen. Kalit so'zlar: tezaurus, omonim, sinonim, antonim, paronim, leksika, semantika, giponim, giperonim, adekvat, sistem, kompyuter, lingvistika, korpus, injenering.

**Kirish.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019 yil 21 oktabrdagi PF-5850-son Farmoni ona tilimizning dunyo miqqyosidagi nufuzini, jamoatchilikning davlat tiliga bo'lgan e'tiborni yanada oshirdi [1]. Bu esa o'z navbatida ona tilimizga kompyuter texnologiyalarini tatbiq etish, kompyuter lug'atlari (tezaurus)ni yaratish vazifalarini qo'yadi.

Tezaurus – hozirgi kundagi zamonaviy tilshunoslikda leksik birliklar o'rtasidagi semantik aloqlar – omonim, sinonim, antonim, paronim, giponim, giperonim va boshqa tushunchalarni ko'rsatadigan umumiy yoki maxsus lug'at, shunday lug'atlarining maxsus turi hisoblanadi.

Nazariy jihatdan tezaurus leksik-semantik tizimning ehtimoliy modellaridan biridir. Amalda undan individual lug'atni boyitish va tezkor qidiruv vositalasi sifatida foydalilanildi.

Tezaurus termini ikki xil ma'noda ishlatalidi:

1. Muayyan leksik birlik semantikasiga oid lingvistik tahlillarga asoslangan to'liq ma'lumot yoritilgan lug'atlar;

2. Bilimlarning muayyan sohasiga taalluqli tizimlashtirilgan axborotlar majmui.

Tezaurus milliy til, qayta ishlangan tabiiy til, axborot uslubi sifatida shaklangan sun'iy til semantikasini belgilaydi. Dunyoning rivojlangan tillaridan hisoblangan ingliz, rus tillaridagi tezauruslar milliy korpuslarning tarkibiy qismi

sifatida ma'lumotlar bazasi va tadqiqotlar uchun material bo'lib xizmat qilmoqda.

Bu lug'at boshqa lug'atlardan farqli o'laroq, biror bir ilm-fan sohasiga oid lug'aviy birliklar yoki biror mavzu tarkibida joylashtirilgan ana shunday birliklar o'rtasidagi semantik munosabatlar aks ettirilgan ideografik lug'atdir.

Tezaurus umumiyligi ma'noda – maxsus terminologiya, ya'ni lug'at, ma'lumotlar yig'indisi, korpus yoki jamlanma, ma'lum sohadagi bilimlar yoki faoliyat sohasidagi tushunchalar, ta'riflar va terminlarni to'liq o'z ichiga oladi.

Muayyan yozuv yodgorliklaridan leksik birliklarni yoppasiga terib olishga asoslangan (masalan, yunon, lotin tillariga tuzilgan) lug'atlar tezaurus hisoblanadi. So'z tanlash tamoyillariga ko'ra yozuvchilar yoki ularning ijodiga mansub biror asar tili bo'yicha tuzilgan lug'atlar ham tezaurus bo'ladi.

U leksik-semantik, korporativ kommunikatsiya (bir fan yoki kasb orqali o'zaro bog'liq bo'lgan shaxslarning muloqotda bir-birlarini tushunishlari) uchun xizmat qiladi. Tezauruslar ma'lum bir fanni talqin qilishda muhim vositalardan biridir.

Lug'at va tezaurus tushunchalarini qiyoslasak, unda har ikkisi so'z va uning ma'nolarini bilish uchun xizmat qilsada, biroq ularning so'z ma'nolari haqida ma'lumot berish usullari har xil, ya'ni o'zaro farqlanadi.

Lug'at va tezaurus so'zlari lug'aviy ma'nosiga ko'ra, o't hisoblanadi. Lug'at ko'proq til o'rganuvchilar tomonidan so'zlarning ma'nolari, talaffuzi va orfografiyasini aniqlash

uchun ishlatsa, tezaurus tadqiqotchilar tomonidan so'zning sinonim, antonim, omonim va boshqa ma'no shakllarini topish uchun ishlataladi.

Tezaurus – so'z yoki terminning tegishli tushunchalar guruhidagi ro'yxati. U murojaat qilinayotgan so'z bilan bir xil bo'lgan boshqa so'zlar to'g'risida ham keng qamrovli ma'lumotlar beradi.

Aksariyat tadqiqotchilar sinonim, antonim, paronim va boshqa shu kabilarni bilish uchun tezaurusdan foydalanishadi. Odatda, tezaurus tilda so'zlarning kelib chiqishiga unchalik bog'liq bo'lmaydi, xususan, so'zlarning etimologiyasi haqida qo'shimcha ma'lumotlar bermaydi. Ammo, tezaurus so'zlarning boshqa shakllari, masalan, nominal shakllari, sifatlar va adverbial shakllar haqida juda ko'plab ma'lumotlar beradi.

Lug'at – bu tildagi so'zlarni (odatda alifbo tartibida) ro'yxatga oladigan va ularning ma'nosini izohlab beradigan yoki shunday so'zlarni boshqa tilda beradigan, ko'pincha to'g'ri talaffuz haqida ma'lumot beradigan kitob yoki elektron manba hisoblanadi. Boshqacha qilib ifodalasak, lug'at tildagi so'zlar haqida bilim beradigan etimologik va grammatick visitadir.

Lug'atda so'zning jinsi va nutqda ishlatalishi haqida qo'shimcha ma'lumotlar mavjud. U tildagi birorta so'z bilan bir qatorda, unga qo'shimcha ravishda ma'lumotlar ham berishi mumkin. Lug'at bir nechta aniq tillarda tuzilishi mumkin, masalan, ingliz, fransuz, rus va boshqa tillarda. Bir tilda tuzilgan lug'atda boshqa tillardagi shu so'zning ekvivalent ma'nolari ham beriladi. Odatda, bu sifatlar tezaurusga tegishli emas.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Birinchi zamонавиyl ingliz tili tezaurusi Peter Mark Roger tomonidan 1805 yilda yaratilgan. Mazkur tezaurus 1852 yilda Angliyada nashr etilgan, taxminan 15 mingta tushunchani o'z ichiga oladi va shu vaqt dan beri foydalanib kelinadi. Bunday lug'atlarning asosiy maqsadi matn yozishda tegishli so'zlarni tanlashga yordam berish, mavzu doirasida atama yoki termin o'tasidagi munosabatlarni tavsiflovchi ma'lumotlarni qidirib topishdan iborat. Bunday lug'atlar ma'lum bir soha mutaxassislar tomonidan yaratilgan va mavzu doirasidagi ma'lumotni qidirib topish uchun mo'ljalangan.

1870 yillarda tezauruslardan ma'lumot izlash ishlardida faol foydalanila boshlandi. Shunday lug'atlardan yana biri Vikilug'at deb ataladi. U ko'p tilli bepul yangilanadigan lug'at va tezaurus bo'lib, "Vikimedia" fondi loyihasi doirasida yaratilgan va 2004 yildan hozirgi kungacha ishlatalib kelinadi. Unda 250 mingta tushuncha va 67 mingta semantik munosabatlarni o'z aksini topgan.

Rus tilidagi xuddi shunday tezauruslardan biri "RuTez" deb nomlangan. Bu lug'at 1997 yilda Axborot tadqiqotlar markazi tomonidan avtomatik indeksatsiya vositasi sifatida yaratilgan. U hozirgi kunga qadar ishlab chiqilgan 45 mingta tushuncha, 107 mingta so'z va iboralar, 177 mingta semantik munosabatlarni qamrab oladi.

O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasida tezaurus terminiga quyidagicha izoh berilgan: "Tezaurus – muayyan tildagi barcha so'zlarni qamrab oladigan, ularning matnda qo'llanish holatlarini to'la-to'kis aks ettiradigan lug'at" [2].

Tezaurus – bu lug'atlar tushunchasi va uning birliklari o'tasidagi sobit semantik aloqalar bo'lib, har ikkala mustaqil xususiyat ham tushuncha aniqlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

"Tezaurus termini, avvalambor tilning lug'at fondini maksimal darajada to'liqlik bilan ifodalaydigan xazina sifatida talqin etiladi. Matnlarning adekvat talqini va ma'lumotlari uning sistem ma'nolarini o'zida mujassam etgan va soha vakillari tomonidan e'tirof etilgan tezaurusda aniqlanadi" [3].

Hozirgi vaqtida ushbu tushunchaga kompyuter texnologiyalarida so'zlarni qidirishda axborot

texnologiyalarining tarqalishi, Internet va mashinalarning tarjimasi bilan bog'liq lug'atlar kiradi. Psixologiyada shaxsnинг tezaurusi ma'lumotni idrok etish va tushunish bilan xarakterlanadi. Bunda aloqa nazariyasi va uning elementlari o'zaro ta'sir ko'rsatadigan murakkab tizimning umumiy tushuncha-tezislari ko'rib chiqiladi.

Kompyuter lingvistikasining tarkibiy qismi bo'lgan tezauruslar leksemalarning o'z va ko'chma ma'nolari, kommunikativ xususiyatlari, emotsiyal-ekspressiv funksiyalari haqida keng ma'lumot berishi bilan qimmatlidir. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, jahon tilshunosligida kompyuter lingvistikasi, korpus tushunchasiga doir ilk ma'lumotlar XX asrning qirqinchi yillarda yuzaga kelganligi ilmiy manbalarda qayd etilgan [4]. O'zbek tilshunosligida korpus lingvistikasi masalalari keyingi yillarda ilmiy tadqiqot ishlari sifatida keng o'rganila boshladi.

Xususan, Sh.M. Hamroyevaning "O'zbek tili mualliflik korpusini tuzishning lingvistik asoslari" nomli dissertatsiyasida o'zbek tilshunosligida birinchi marta korpus, uning o'ziga xos xususiyatlari, nazariy asoslari, til korpusining lingvistik hamda nazariy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan [5].

Shuningdek, korpus lingvistikasining shakllanish tarixi, taraqqiyot yo'li, o'ziga xos xususiyatlari va bugungi holati masalalari atroflichka talqin qilingan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni qabul qilinganligining 30 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi PQ-4479-son qarori (2019 yil 4 oktabr), "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-son Farmoni (2020 yil 20 oktabr) hamda tilshunoslik sohasiga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjalarda davlat tilini yanada rivojlantirish, uning xalqaro nufuzini oshirish, maishiy xizmat, harbiy, tibbiyot va boshqa sohalarda keng qo'llanilayotgan xorijiy so'z va terminlarning o'zbekcha muqobilari va ularning lug'atini yaratish, o'zbek tiliga ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish va bu boradagi ilmiy tadqiqot ishlarini qo'llab-quvvatlash singari dolzarb masalalar ko'zda tutilgan.

Yuqoridaq Farmon va qarorlar ushbu tadqiqotning metodologik asosini tashkil etadi.

**Tahlil va natijalar.** O'zbek tilini jahon tillari qatorida rivojlantirish, uni dunyoviy tillar sirasiga kiritish va til o'rganish hamda o'rgatishda kompyuter lingvistikasi fani dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Texnika taraqqiyoti mahsuli bo'lgan kompyuter tizimi barcha sohalarda qulayliklar yaratadi, ma'lumotlarning tezkor yetkazib berilishini, tarjima, tahrir jarayonlarining mashina yordamida qisqa muddatlarda amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Kompyuter lingvistikasi amaliy tilshunoslik yo'nalishlaridan biridir. "Amaliy lingvistika" termini esa ko'p ma'noli termin bo'lib, bu termin umumtilshunoslikda har xil talqin qilinadi. G'arb tilshunosligida applied linguistics, angewandte linguistik termini, birinchi navbatda, o'qitish metodikasi, grammatick xususiyatlarni qamrab olgan holda, ona tili va chet tillarini o'qitish amaliyoti bilan bog'lanadi.

Aslida mazkur tushunchalar kompyuter texnologiyalarining ishlab chiqilishi va axborotni qayta ishslash tizimi (boshqaruvning avtomatlashgan tizimi, informatsion qidiruv tizimi, matnni qayta ishslashning avtomatik tizimi) shakllanishi jarayonida yuzaga kelgan.

Xorijiy tillar, jumladan rus tilida yaratilgan tezauruslar o'rganilganda ularning tuzilishi, modellari jihatidan har xillikni kuzatdik [6]. YA'ni tezaurus tuzishda bir xil prinsip yoki kriteriy mavjud emas, shuningdek axborot qidiruv jarayonida foydalanuvchilarga qulaylik yaratishga asosiy e'tibor qaratilganini ko'ramiz.

Ayrim rus tilidagi adabiyotlarda, ko‘p hollarda, “kompyuter lingvistikasi” (“computational linguistics”), “hisoblash lingvistikasi”, “avtomatik lingvistika”, “inxener lingvistikasi” tarzida qo‘llaniladi [7]. Amaliy lingvistikaniнg mazkur nomlar bilan yuritilishi uning faoliyatini xarakterini belgilaydi. Ushbu terminlarda amaliy lingvistikaniнg integratsiyaga asoslanishi, avtomatlashish xususiyati o‘z ifodasini topgan.

Mavjud tezaurus maqolalarining modellari (O.Baranov, S.YE.Bikova, N.R.Valitova, YE.V.Smirnova va boshqalar izlanishlarida qayd etilgan) va boshqa tadqiqotlар xarakteridan kelib chiqib [8], tezaurus maqolasining quyidagi umumiy modelini keltirish mumkin:

termin; 2) aniqlovchi; 3) sinonimlari; 4) antonimlari; 5) golonimlari; 6) o‘z ichida komponent, belgi, funksiya, xususiyat, aspekt munosabatlari qamrab oluvchi meronimlari; 7) giperonimlari; 8) giponimlari.

**Xulosa va takliflar.** Tezaurus – bu umumiy ma’noda maxsus bilim sohasi yoki faoliyat sohasining tushunchalar, ta’riflari, atama yoki terminlarini to‘liq qamrab oladigan maxsus terminologiya, yanada qat’iy va obyektiv ravishda lug’at, ma’lumotlar to‘plami, korpus yoki kod, demakdir.

Tilda tezauruslar elektron formatda, alohida fan sohalarini tafsiflashning samarali vositalaridan biri bo‘lib, biror fan yoki kasb-hunar bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlар va shu munosabatlardagi tushunchalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tezaurusning milliy tilshunoslikka tatbiq etilishi axborotlarning tezkorlik bilan o‘zlashtirilishi, shuningdek bajariladigan amallarning aniqligini ta’minlaydi.

Kompyuter lingvistikasi har bir tilning o‘ziga xos tabiatini hisobga olib, muayyan tilning fonetik, leksik, grammatic sathlariga oid masalalarni mashina yordamida hal qilish vazifasini qo‘ygandagina lingvistik taraqqiyot omili bo‘la oladi.

### ADABIYOTLAR

- Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқенини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ти Фармони. “Халқ сўзи” газетаси // 2019 йил, 22 октябрь, 218-сон.
- Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. – Тошкент, 2004
- Валитова Н.Р. Формирование профессионального тезауруса у студентов физкультурного вуза. Автореф. на соиск. уч. степени канд. пед. наук. – Омск, 2012
- Кутузов А.Б. Курс “Корпусная лингвистика”. Лицензия Creative commons Attribution Share-Alike 3.0 Unported - // lab314.brsu.by/kmp-lite/ kmp-video/ CL/ CorporeLingva.pdf.
- Ҳамроева Ш.М. Ўзбек тили муаллифлик корпусини тузишнинг лингвистик асослари. Филол. ф. бўйича ф.д.(PhD) дисс. автореф. – Қарши, 2018
- Лукова В.А. таҳрири остида “Тезаурусный анализ мировой культуры”. Сборник научных трудов. // – М.: 2013., Крюкова М. И. Экфрастический тезаурус в прозе А.С.Грина. Дисс., на соиск уч. степени к.ф.н. // – Новосибирск: 2018 ва б.
- Баранов А.Н.таҳрири остидаги “Словарь тезаурус современной русской идиоматики”. – М.: “Мир энциклопедии”, 2007
- Баранов О. Русский тезаурус (Электронное издание). – М.: 2014
- Быкова С.Е. Тезаурусное моделирование юридической терминологии (на материале французского языка в сопоставление с русским). Автореф. на соиск. уч. степени канд. фил. наук. – Екатеринбург, 2006
- Валитова Н.Р. Формирование профессионального тезауруса у студентов физкультурного вуза. Автореф. на соиск. уч. степени канд. пед. наук. – Омск, 2012
- Смирнова Е.В. Структурно-семантические и лексикографические аспекты медицинской терминологической (на примере кардиологической лексики). Автореф. дис. на соискание уч. степени канд. филол. наук. – Ярославль, 2012. – 48 с.
- Суюнов Б.Т. Тиббий терминлар семантикаси ва тезауруси. Монография. – Тошкент: 2022
- Суюнов Б.Т. Тезаурус – хозирги замонавий лугат тури. IX Global science and innovations 2020: Central Asia. International scientific practical conference. Kazakhstan, Nur-Sultan (Astana).
- Суюнов Б.Т. Tezaurus va uni turkiy tillarga tatbiq etish. “Turkiy filologiyaning dolzarb masalalari, nazariya va innovatsion ta’lim texnologiyalari” Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami / Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti. – Нукус: 2021